

## **TOURIST POTENTIAL OF SURKHANDARYA REGION AND OPPORTUNITIES FOR ITS DEVELOPMENT**

**Baratova S.B. master's student  
at Termez State University  
Abdumo'minov B.O.  
Head of the Department  
of Geography, Termez  
State University, Phd  
Bozorov V.X.  
Geography teacher  
at the Academic Lyceum  
at Termez State University**

**Abstract:** This article presents ideas and comments on the importance of tourism in the Surkhandarya region, including work to develop regional tourism, as well as the historical and cultural heritage sites of the region. The potential of some existing archaeological, architectural and monumental sites in the area of Termez and Old Termez for the development of tourism is considered.

**Key words:** tourism, historical and cultural heritage, monument, pilgrimage tourism, archaeological tourism.

## **ТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО РАЗВИТИЯ**

***Аннотация:** В данной статье представлены идеи и комментарии о важности туризма в Сурхандарьинской области, включая работу по развитию регионального туризма, а также историко-культурные объекты наследия региона. Рассмотрен потенциал некоторых существующих археологических, архитектурных и монументальных объектов в районе Термеза и Старого Термеза для развития туризма.*

*Ключевые слова: туризм, историко-культурное наследие, памятник, паломнический туризм, археологический туризм.*

## **SURXONDARYO VILOYATINING TURIZM SALOHİYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI**

**Baratova S.B<sup>1</sup>, Abdumo‘minov B.O<sup>2</sup>,<sup>3</sup>**

<sup>1</sup>Termiz davlat universiteti magistranti

<sup>2</sup>Termiz davlat universiteti geografiya kafedrası mudiri, PhD.

<sup>3</sup>**Bozorov V.X.** Termiz davlat universiteti akademik litseyining geografiya fani o‘qituvchisi

*Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati turizmining ahamiyati, shu jumladan, viloyat turizmini rivojlantirish borasidagi ishlar, hududning tarixiy-madaniy meros obyektlari haqida fikr va mulohazalar keltirilgan. Termiz va Eski Termiz hududidagidagi mavjud ba’zi arxeologik, arxitektura hamda monumental obyektlarning turizmni rivojlantirishdagi imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.*


*Kalit so‘zlar: turizm, tarixiy-madaniy meros, monument, ziyorat turizmi, arxeologik turizm.*

Mamlakat iqtisodiyotida turizmni strategik darajaga ko‘tarish, ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va hajmini keskin ko‘tarish, mamlakat fuqarolarini respublikaning turizm salohiyati bilan tanishtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son [1] hamda ushbu farmonning “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son farmonlarining 35-maqсадiga binoan ichki turizm salohiyatini targ‘ib qilish orqali 2024-yilda “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 1,8 mln. nafardan oshirish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-sonli Farmonining 2–ilovasi [2] bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030”

strategiyasining barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash yo'nalishi bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasi"ning 73-bandida Xorijiy turistlar sonini 500 ming nafarga yetkazish vazifasi belgilab berilgan. Shuningdek, mazkur strategiyaning 75-bandida ichki sayyohlar sonini 1,65 mln.nafarga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan turistlar sonini 50 ming nafarga yetkazish hamda "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida" 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni [3] va "O'zbekiston-2030" strategiyasini 2024-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-300-son qarorining 58-maqсадiga binoan O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish uchun 2024-yilda ichki sayyohlar sonini 21 millionga yetkazish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2024-yil 3-iyun kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 28-son bayoni, 10-bandida "Joriy yilda 11mln nafar xorijiy sayyohlarni jalb etish va turizm eksportini 2,5 mlrd dollarga yetkazish" bo'yicha bir qator majburiyatlar yuklatilgan, shuningdek, Surxondaryo viloyatt hokimi tomonidan viloyatga tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar hajmini ko'paytirish maqsadida qator chora-tadbirlar rejalashtirilgan.

Jumladan, 2024-yilda (yanvar-sentabr) Surxondaryo viloyatiga tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar hajmi jami 480100 kishiga ko'tarilgan, shulardan, 1898 kishi Angor tumaniga, 1851 kishi Bandixon tumaniga, 29894 kishi Boysun tumaniga 140362 kishi Denov tumaniga, 2633 kishi Jarqo'rg'on tumaniga, 2058 kishi Qiziriq tumaniga, 5739 kishi Qumqo'rg'on tumaniga, 801 kishi Muzrabot tumaniga, 8724 kishi Oltinsoy tumaniga, 72743 kishi Sariosiyo tumaniga, 191791 kishi Termiz shahriga, 4426 kishi Termiz tumaniga, 11851 kishi Uzun tumaniga, 3341 kishi Sherobod tumaniga 1988 kishi Sho'rchi tumaniga jalb qilingan [8].

**Surxondaryo viloyatiga 2024-yilda xorijiy sayyohlarni jalb etish (davlatlar kesimida) (1-oktabr holatiga ko'ra)**



**1-rasm. Surxondaryo viloyatiga xorijiy sayyohlarning tashrifi**

*Surxondaryo viloyati Turizm boshqarmasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan*

Shu jumladan, qo'shni davlatlarga Tojikiston, Afg'oniston, Qozog'iston, Qirg'iziston davlatlari, MDH davlatlariga Rossiya, Moldova, Ozarbayjon davlatlari, Yevropa davlatlariga Buyuk Britaniya, Fransiya davlatlari, Yaqin sharq mamlakatlariga Xitoy, Yaponiya, Indoneziya, Pokiston, Hindiston davlatlari kiradi.

2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, viloyatda jami 561 ta moddiy-madaniy meros obyektlari mavjud. Shulardan: areologiya yodgorliklari – 444 ta, arxitektura yodgorliklari – 36 ta, diqqatga sazovor joylar – 42 ta, monumental san'at yodgorliklari – 39 tani tashkil etadi.

**Surxondaryo viloyatining moddiy-madaniy obyektlar ro'yxati (tumanlar kesimida)**

1-jadval

№	Tumanlar nomi	Moddiy-madaniy obyektlar				
		Jami	Arxeologiya yodgorliklari	Arxitektura yodgorliklari	Monumental san'at yodgorliklari	Diqqatga sazovor joylar
1	Angor	21	20	1		
2	Boysun	71	50	3	2	16
3	Denov	91	74	2	8	7

4	Jarqo'rg'on	23	19	2	2	
5	Qiziriq	21	17	1	3	
6	Qumqo'rg'on	7	5	2		
7	Oltinsoy	41	35	1		5
8	Muzrabot	11	10	1		
9	Sariosiyo	33	29			4
10	Sherobod	99	85	2	7	5
11	Termiz t	44	30	14		
12	Uzun	28	26	1	2	
13	Sho'rchi	61	44		12	5
14	Termiz sh	9		6	3	

*Manba: Surxondaryo viloyati Turizm boshqarmasi [8]*

Viloyatdagi ba'zi bir tarixiy-madaniy yodgorliklarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular o'ziga xos xududiy geografik joylashganligiga amin bo'lamiz. Surxondaryo viloyati hamda Termiz shahri va eski Termiz hududlaridagi tarixiy-madaniy ob'ektlarda ham turizmni rivojlantirish istiqbollari mavjud [5]. Bu sharoitlardan unumli foydalanib, uni kelajakda istiqbolli qo'llash muhim sanaladi

**Angor tumanidagi Zartepa yodgorligi (mil.avv.IV-II asrlar)** – Termiz shahridan 26 km shimoli-g'arbda joylashgan qadimgi shahar xarobasi. Zartepa 1951-52 yillarda arxeolog L.I.Al-Baum tomonidan tekshirilgan. Zartepa kvadrat shaklida bo'lib, devorlarining uzunligi 400 m dan, sharqiy devor xarobalari 6-7 m, g'arbiy devori 4 m gacha saqlanib qolgan [7].

**Bolaliktepa** – VI-VII asrlarga mansub katta yer egasi (dehqon) ko'shki qarorgohi. Toshkent-Termiz avtomobil yo'lidan 2 km shimoli-sharqda joylashgan. Vatanimiz hududidagi jahonga mashhur arxeologik yodgorliklaridan biri. Bolaliktepa ilk bor arxeolog L.I.Albaum tomonidan 1953-56 yillarda to'liq qazib ochildi.

**Angor tumanidagi Qo'rg'on yodgorligi (milodiy V-VII asrlar)** – katta yer egasi qarorgohi, Zartepadan 3 km sharqda joylashgan. Tomonlari 30x24 m,

balandligi 10 m atrofida. XX asrning 70-yillarida arxeolog T. Annayev tomonidan ko'shkning ikkinchi qavatida qisman arxeologik qazuv ishlari olib borilgan.



Angor tumanidagi Qo'rg'on yodgorligi  
(milodiy V-VII asrlar)



Muzrabod tumanidagi Kampirtepa  
yodgorligi (mil.avv.III asr)



Boysun tumanidagi Machay g'ori  
(mil.avv. 12-6 ming yillik)



Denov tumanidagi Said otaliq madrasasi  
(XVI asr)

## **2-rasm. Surxondaryo viloyatidagi ba'zi tarixiy-madaniy yodgorliklar**

**Xayrabodtepa** – Kushon davriga oid shahar-qal'a, mil.avv. I asrda asos solingan. Angor markazidan janubiy tarafda Xayrabod qishlog'ida joylashgan. Yodgorlikda ilk bora arxeologik tadqiqotlar XX asrning 50-yillarida arxeolog L.I.Albaum tomonidan amalga oshirilgan.

**Muzrabod tumanidagi Sopollitepa yodgorligi** (mil.avv.XVII-XV asrlar) – Sherobod cho'lini kesib o'tgan Ulanbuloqsoy yoqasiga joylashgan jez (bronza) davriga oid yodgorlik. U 1968 yil arxeolog L.I.Albaum tomonidan topilgan. 1969-74 yillarda A.Asqarov tomonidan o'rganilgan.



**Kampirtepa yodgorligi (mil.avv.III asr)** – Amudaryoning o‘ng sohilida Termizdan 30 km g‘arbda joylashgan qadimgi shahar xarobasi. Yunon-Baqtriya podsholigi davrida Kampirtepa nafaqat shahar, balki harbiy garnizon vazifasini ham bajargan va XV asr muarrihi Xofizu Obro‘ asarida Jayxun bo‘yidagi “Pandaxeyon” nomi ostida eslab o‘tilgan.

**Jarqo‘ton qal’asi** – mil.avv XVII-X asrlar oralig‘ida shakllangan Sopolli madaniyatining noyob yodgorliklaridan biri Jarqo‘ton qal’asidir. Bronza davrida bunyod qilingan qadimiy qal’alari orasida Sherobod tumani hududida joylashgan mil.avv.XV-XIV asrlarga oid ilk shahar ko‘rinishidagi Jarqo‘ton qal’asi o‘ziga xos mavqeyi, qurilish uslubi bilan ham ajralib turadi.

Surxondaryo viloyatida turizm sohasini jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy, ma‘muriy va huquqiy muhitni yaratgan holda, eng samarali tartibni joriy etish, hududlarning iqtisodiy salohiyati va daromadlari bazasini kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, vohamizga keladigan turistlar oqimini ko‘paytirish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks ilgari surish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-sonli Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-300-son qarori.

5. To‘rayev Q.T., Qurbonov Sh.B. O‘zbekistonda diniy turizmni rivojlantirish va hududiy tashkil etilishini takomillashtirishning geografik asoslari. Monografiya, Toshkent, Zebo Print, 2023. -156 b

6. M.R.Usmanov. Turizm geografiyasi. O‘quv qo‘llanma. — Samarqand, «SamDU», 2020. -281 b.

7. S.Tursunov, T.Pardayev, A.Payg‘amov, N.Narzullayeva. Surxon vohasi moddiy madaniyat tarixi. Toshkent, “Muharrir” nashriyoti, 2013. – 324 b.

8. Surxondaryo viloyati Turizm boshqarmasi ma’lumotlari. <https://surxon-turizm.uz/>